



journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ujhpl>**HISTORY OF UZBEKISTAN'S MADRESAS AND ISSUES OF ACADEMIC FREEDOM****Umida Rakhmatovna Kudratova***Associate Professor of the Department of Philosophy**Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy**Tashkent State University of Economics**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: madrasah, education system, Islamic education, endowment, Bukhara madrasahs, Kokand Khanate, scholars.

Received: 04.04.26**Accepted:** 05.04.26**Published:** 06.04.26

Abstract: This article analyzes the emergence, stages of development and role of madrasahs in the education system. It also covers the activities of madrasahs in Central Asia, particularly in Uzbekistan, their educational content, management system and social significance. The role of madrasahs in the development of not only religious but also secular sciences is substantiated.

O‘ZBEKISTON MADRASALARI TARIXI VA AKADEMIK ERKINLIK MASALALARI**Umida Raxmatovna Kudratova***“Falsafa” kafedrasida dotsenti**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: madrasa, ta’lim tizimi, islom ta’limi, vaqf, Buxoro madrasalari, Qo‘qon xonligi, ulamo.

Annotatsiya: Mazkur maqolada madrasalarning paydo bo‘lishi, rivojlanish bosqichlari va ta’lim tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston hududidagi madrasalar faoliyati, ularning ta’lim mazmuni, boshqaruv tizimi va ijtimoiy ahamiyati yoritiladi. Madrasalarning nafaqat diniy, balki dunyoviy ilmlar rivojidadagi o‘rni asoslab beriladi.

ИСТОРИЯ УЗБЕКИСТАНСКИХ МАДРЕС И ВОПРОСЫ АКАДЕМИЧЕСКОЙ СВОБОДЫ

Умида Рахматовна Кудратова

Доцент кафедры «Философия»

Доктор философии (PhD) по философским наукам

Ташкентский государственный экономический университет

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: медресе, система образования, исламское образование, пожертвования, медресе Бухары, Кокандское ханство, ученые.

Аннотация: В данной статье анализируются возникновение, этапы развития и роль медресе в системе образования. Также рассматривается деятельность медресе в Центральной Азии, в частности в Узбекистане, их образовательное содержание, система управления и социальное значение. Обосновывается роль медресе в развитии не только религиозных, но и светских наук.

Kirish. Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim islohotlarining bugungi manzarasi aynan, zamonaviy tendensiyalarga asoslangan holda shakllanmoqda. Bu an'analarga doir qarashlar yevropa ta'lim tizimi, standartlari va talablaridan kelib chiqmoqda. Aslida milliy ta'lim an'analari mavjudmi? Bor bo'lsa, nima sababdan ulardan unumli foydalanishga harakat qilinmayapti? Sharq va G'arb ta'lim tizimining farqli va o'ziga xos jihatlari nimalarda aks etmoqda? degan savollar har birimizni qiziqtiradi.

O'zbekiston qadimiy tarixga boy mamlakat sifatida Buyuk ipak yo'lining markazida joylashgan. Sharq va G'arb an'analari bu o'lka xalqlari hayotiga bevosita shu yo'l orqali kirib kelgan. Ammo ma'lum davrlardagi aloqalarning susayishi oqibatida ta'limning zamonaviy, ilmiy-tajribaviy faoliyat yo'nalishlari rivojida ayrim to'siqlarning vujudga kelishi kuzatiladi. Aynan XX asr boshlarigacha bo'lgan davrda madrasalar aynan o'rta asrlardagi talab va ehtiyojlar doirasida mavjud bo'lganligiga guvoh bo'lamiz. Bunda madrasalar, asosiy ta'lim maskanlari sifatida faoliyat olib borgan. Universitetlarning ilk ko'rinishi - madrasalar tarixi va faoliyatini Turon zamindagi Buxoro, Nasaf, Qo'qon, Toshkent shaharlaridagi nufuzli madrasalar tahlili orqali o'rganish mumkin.

O'zbekistonda islom ta'limi o'zining ko'p asrlik ildizlariga ega. Ilk o'rta asrlarda ham bu hududda madrasalarning keng tarmog'i mavjud bo'lib, ularda ham diniy, ham tabiiy (dunyoviy) fanlar o'qitilgan. Mohiyatan madrasalar o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimini ifoda etgan.

Movarounnahr azaldan nafaqat musulmon olamida, balki butun dunyoda ilm-fan, madaniyat, xususan, nazariy jihatdan islom dini taraqqiyotining o'lkasi sifatida tan olingan. Ilm-fan rivojiga beqiyos hissa qo'shgan Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek kabi buyuk allomalar nomini butun dunyo biladi. Musulmon olami Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu-l-Lays Samarqandiy, Abu Mansur al-Moturidiy, Burxoniddin Marg'inoniy va boshqalarning asarlarini o'rganadi. Ular zamonaviy musulmon ilohiyotshunoslarining fikriga ko'ra, Islom fanlarini ilmiy fanlar darajasiga ko'tardilar va o'z mehnatlari bilan tafsir, hadis, fiqh, kalom kabi fanlar rivojida yangi davrni boshlab berdilar.

Asosiy qism. Madrasalar tarixi, ta'lim tizimi, ta'lim sub'ektlarining faoliyati, boshqaruv tizimi kabi muammolar Abu Bakr Muhammad Narshaxiy, O.M. Kerenskiy, R.Shamsutdinov, B.Rasulov, H.A.R.Gibb, J.Berkey, M.Alixo'jaev, F.Bobojonova, A. Jumanazar, R.Mardonov, M. Turdievalarning tadqiqotlari asosida tahlil etildi.

VII—VIII asrlarda islom dini ulamolari musulmon ilohiyoti masalalarini sharhlab berib turadigan markaz sifatida arab davlatlarida paydo bo'lgan. Madrasaning birinchi ta'lim muassasasi Zayd ibn Arkam mulkida Safo degan tepalik yaqinida bo'lib, u yerda Muhammad (s.a.v.) domla, shogirdlari esa uning izdoshlari edi. Hijratdan keyin Madinada Masjid an - Nabaviy masjidining sharqiy tomonida "Suffa" madrasasi tashkil etilgan. Keyinchalik Fotimiylar tomonidan 969–970 yillarda Qohirada ismoiliy ta'limotini targ'ib qilish markazi sifatida al-Azhar masjidi tashkil etildi, keyinchalik u Ayyubiylar hukmronligi ostida sunniylik institutiga aylangan[6]. IX—XII asrlarda islom diniga e'tiqod qilinadigan mamlakatlarda, jumladan, Markaziy Osiyoda tarqaldi. Narshaxiyning, "Buxoro tarixi" asarida [1] 937-yilgi yong'inda zarar ko'rgan Forjak madrasasi Markaziy Osiyodagi dastlabki madrasalardandir. Abbosiylar davrining oxirlarida, saljuqiylar vaziri Nizom al-Mulk tomonidan Madrasai Nizomiyya nomi bilan Eron, Mesopotamiya va Xurosonda tarixda birinchi rasmiy madrasalar tarmog'i qurilgan. O'zining shakllanish davrida madrasa atamasi oliy o'quv yurtini nazarda tutgan bo'lib, uning o'quv dasturida dastlab faqat „diniy fanlar“ kiritilgan bo'lsa, keyinchalik ko'plab madrasalarda mantiq, matematika va falsafa kabi diniy va "dunyoviy fanlar" o'qitiladi[7].

Madrasa (arabcha "dars o'qitiladigan joy", "darsxona")lar – islomda o'rta va oliy maxsus diniy o'quv yurti bo'lib, ulamolar, maktab va madrasa mudarrisleri, din arboblari tayyorlagan. XI asrdan boshlab madrasalar yetakchi o'quv yurtiga aylangan bo'lib, bungacha ta'lim masjidlarda va xususiy uylarda, shuningdek, mehmonxona, kutubxona va kasalxonalarda olib borilgan. Madrasalar vaqf hisobiga ta'sis etilgan. U yerda mudarrislar va boshqa xizmatchilar maosh, talabalar stipendiya, o'quv jihozlari (daftar, kitob, qalam va b.) hamda turar joy bilan

ta'minlanganlar. XI-XII asrlarda O'rta Osiyoning barcha yirik shaharlarida bir qancha madrasalar mavjud bo'lgan. Madrasaga maktabni tugatgan o'spirinlar qabul qilingan. XIX asr boshlariga kelib, O'rta Osiyoda iqtisodiy rivojlanish boshlangani tufayli ta'lim sohasida ham ayrim o'zgarishlar yuz bera boshlagan. Maktab va madrasalar qurish avj olib, ayniqsa, Qo'qon, Toshkent, Buxoro kabi shaharlarda ularning soni tez ko'paygan.

Mamlakatimiz hududida ilk madrasalar - Buxoro madrasalari — Turon hududiga islom kirib kelib, mustahkam o'rnashganidan so'ng, Buxoro vohasida IX asr boshlaridan tashkil etila boshlagan. Buxoro madrasalari faoliyati tarixiga oid maxsus tizimga solingan ma'lumotlar XX asrning boshlaridayoq paydo bo'la boshlagan. Sadri Ziyo, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Muhammad Ali Baljuvoni, Sayyid Mansur Olimiy kabi mualliflar Buxoro madrasalari haqida qimmatli ma'lumotlar berishgan[8.44].

Buxoro madrasalari ta'lim tizimining eng yuqori bosqichi bo'lib, ilm maskani sifatida nafaqat Turonda, balki barcha musulmon mamlakatlarida madaniyat o'choqlari vazifasini o'tab, ma'rifat markazi bo'lgan [19]. Buxoro madrasalari islom olamidagi eng mashhur va nufuzli oliy o'quv yurti bo'lib, ularda ta'lim olgan ulamolarning diniy masalalardagi fikrlari Misr va Hijozda o'qiganlarning fikrlaridan ko'ra mo'tabarroq hisoblangan [5.52].

Buxoro madrasalari azaldan islom dunyosining ilm-ma'rifat markazi sifatida katta nufuzga ega bo'lganligi sababli XIX—XX asr boshlarida ham o'zining ma'naviy-madaniy markaz sifatidagi ahamiyatini yo'qotmagan. XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida ham Buxoro madrasalarining islom dunyosidagi mavqei va nufuzi ma'lum darajada saqlanib, jamiyat taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib, o'sha vaqtda davlatning hukmron siyosati va islom ta'limotiga xizmat qilgan[5.52]. XX asr boshlarida Buxoro madrasalari Markaziy Osiyo, Kavkazorti, hozirgi Tatariston va Boshqirdiston hududlari uchun islomiy ta'lim markazlaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etgan[17. 198-201][4.129].

Qo'qon xonligidagi ta'lim tizimi, maktab va madrasalar faoliyati[3] haqida O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivining Farg'ona viloyati boshqarmasiga tegishli 19-fondga saqlanayotgan Qo'qon, Andijon, Namangan uyezdlari boshliqlarining Farg'ona viloyati harbiy gubernatoriga yuborgan musulmon maktablari to'g'risidagi ro'yhatlarida, 1888-yil uyezdlar mavjud bo'lgan madrasa va maktablar haqida ma'lumot berilgan. Ro'yxatga ko'ra, Qo'qon shahri va uyezdida 51 ta madrasa va 260 ta maktab faoliyat yuritgan, ularning aksariyat 1876-yilga qadar faoliyatini boshlagan. Unda 260 ta maktab hamda unda dars beruvchi 262 nafar muallim va 3096 nafar o'quvchi ta'lim olganligi qayd etilgan[15.729].

Qo‘qon shahridagi xonning asosiy madrasasida 1000 ta mulla o‘qigan. Bu madrasani ikkita bosh muddarris boshqargan. Madrasalarni tugatganlarning ayrimlari o‘z hohishlari bilan bilimlarini takomillashtirish maqsadida Buxoro va Samarqand madrasalariga ham borib o‘qigan. Madrasalarda o‘quv dasturlari asosan uch bosqichda ya‘ni boshlang‘ich, o‘rta va yuqori bosqichda olib borilib, arab, fors, turk tillari mukammal o‘rgatilgan. Bulardan tashqari Qur‘on ilmi (tavsif, o‘qish uslublari, qiroat), fiqh, shariat qonunlari, xandasa, ilmi nujum, jug‘rofiya, tarix, tabobat fanlari o‘qitilgan. Madrasaga kelgan talabalar chuqur bilimga ega bo‘lishlari lozim edi. Ushbu maskanda ham diniy, ham ilmiy, ham madaniy fanlar bo‘yicha dunyoga tanilgan mudarrislar, olimlar bor bo‘lganligi uchun Turkistonga turli mamlakatlardan ko‘plab talabalar kelib o‘qiganlar [9].

Qo‘qon madrasalarining o‘ziga xosligi shundaki, Qo‘qon xonlikning poytaxti bo‘lganligi sababli, madrasalar yirik, hashamatli va shunga yarasha vaqf mulklari ko‘p bo‘lgan. Bunday katta va ko‘p vaqfga ega bo‘lgan madrasalar asosan, xon va uning yaqin qarindoshlari, badavlat mulkdorlar tomonidan qurdirilgan va ularga katta miqdorda vaqf mulklari ehson qilingan. Ushbu mulklar madrasalarning asosiy moddiy bazasi edi. Chunki vaqf mulklari daromadidan mudarrislariga va boshqa xizmatchilarga maosh, mullalarga nafaqa berilgan, madrasa binosi ta‘mirlangan va boshqa harajatlar qoplangan. Vaqf mulklari ko‘p bo‘lgan madrasalarda dars sifati ham yuqori bo‘lgan.

Qo‘qon madrasalarida malakali mudarrislar dars berishgan. Shuning uchun ham Andijon, O‘sh, Marg‘ilon, Namangan madrasalarini bitirgan mullalar Qo‘qon madrasalarida qayta o‘qib malaka oshirganlar. Qo‘qon madrasalari xonlik madaniyati rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Madrasalarda diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham o‘rgatilgan. Madrasalarni tugatgan bilimdon mutaxassislar xonlik tashkilotlarida ish yurituvchi, mirza lavozimlarida, masjidlarda imom, mudarris bo‘lib xizmat qilgan. Uning talabalaridan olimlar, shoirlar, mudarrislar yetishib chiqqan [6].

Ta‘kidlash joizki, madrasalar asosan fiqh ilmini o‘rganishga qaratilgan edi. IX asrda mazhablar shakllanganidan keyin islom huquqiy ta‘lim tizimidagi “ijozat at-tadris va-al-ifto” (“huquqiy fikrni o‘rgatish va berish uchun litsenziya”) paydo bo‘lgan. Talabalar madrasani tamomlagach, ularga faqih “fiqh olimi”, muftiy “fatvo berishda malakali olim”, mudarris “ustoz” maqomlari beruvchi ijozalar berilgan. “Ijzat at-tadris” dars berishga layoqatli islom ulamolariga berilgan. XV asr Damashqdagi 155 ta madrasadan uchtasi tibbiyot maktabi bo‘lgan [7].

Madrasalarning xon madrasalari, eshon madrasalari, xususiy madrasalar kabi turlari bo‘lgan. Madrasa muassislari madrasani ta‘minlash uchun maxsus mulk – vaqf ajratishgan va bu mulkni

boshqaruvchi mutavvalini tayinlashgan. Madrasalarning vaqf daromadlaridan bir qismi madrasa binosini ta'mirlash uchun ajratilgan, ma'lum qismi mutavvali, mudarrislar, talabalar, masjid imomi, muazzini, sartaroshi, farroshi va boshqa xizmatchilarga berilgan.

Madrasa o'quv dasturining umumiy jihatlari X – XII asrlarda ishlab chiqilgan va keyinchalik takomillashib borgan. Madrasada o'qish talabalar iqtidoriga qarab, 7 – 12 yil davom etgan. Markaziy Osiyodagi madrasalarda arab va fors tilida yozilgan kitoblar o'qitilgan, ular talabalarga mudarris tomonidan turkiy tilda sharhlab berilgan. Madrasa o'quv kursi, odatda, “Avvali ilm” deb nomlangan fors tilidagi o'quv qo'llanmasini o'zlashtirish bilan boshlangan. Keyin o'rta asrlarning ilmiy tili hisoblangan arab tili grammatikasi (arab tili morfologiyasi — sarfi va sintaksisi — nahvi “Bidon”, “Kofiya” kabi darsliklar asosida) o'qitilgan. Arab tili grammatikasidan so'ng o'quv kursi ikki bo'limga: umumta'lim kursi – mushkulot va fiqh kursi – masala bo'limlariga ajratilgan. Madrasalarda fiqh kursining faroiz — meros huquqi qismi bilan birga matematika fani ham majburiy o'quv kursiga kiritilgan. Talabalar o'z xohish-istaklari va qobiliyatlariga qarab mushkulot yoki masala bo'limlaridan birini, agar istasalar har ikki bo'limni o'qib tamomlashlari mumkin bo'lgan. Madrasalarda to'liq kursni o'qib tamomlash uchun talabalardan falsafa va huquq fanlariga oid taxminan 137 darslik – qo'llanmani o'zlashtirish talab etilgan. Bu darsliklarning aksariyatini markaziy osiyolik allomalarning asarlari, jumladan, Imom Buxoriy va Imom Termiziylarning hadis to'plamlari, Moturidiyning “Kitob at-tavhid”, Burhoniddin Marg'inoniyning “al-Hidoya fi sharh al-bidoya”, Abdurahmon Jomiyning “al-Favoid ad-diyoiya” kabi asarlari tashkil etgan. Madrasalarda talabalarning qiziqishlari va mudarrislarining mavjudligiga qarab, falakiyot, handasa, tibbiyot, kimyo, jug'rofiya, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me'morlik asoslari, xattotlik, musiqa, axloq, notiqlik kabi fanlar ham o'qitilgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyo madrasalari o'quv dasturi birmuncha isloh etilib, ularda o'qitiladigan fanlar tarkibiga turk, rus, fransuz, ingliz tillari, fizika, ziroatchilik, hisob, gigiyena, psixologiya, metodika, trigonometriya, siyosiy iqtisod, tijorat kabi fanlar kirib kela boshlagan.

Tadqiqotchi R. Mardonov ta'lim falsafasi doirasida islom ta'lim tizimini tahlil qilgan ekan, aynan madrasa ta'lim tizimi, o'quv dasturlari, darsliklari haqida fikr yuritadi. “Madrasaning ko'p sonli bitiruvchilariga o'qishni boshqa madrasada davom ettirishga imkoniyat berilgan, ular bu erda ta'lim olgan madrasadan farqli dastur bo'yicha tahsil olganlar. Katta shaharlar va yirik qishloqlarda madrasalar tashkil etilgan. Islom dinini qabul qilgan xalqlar orasida diniy ta'limot va amaliyot asoslari bo'yicha darslar o'tkazilgan. Har bir ta'lim muassasasi o'z dasturlarini tuzgan, ammo yagona o'quv rejasi bo'lmagan” [12.29]. M.N. Farxshatovning ta'kidlashicha, “madrasa

Evropa ta'lim muassasalaridan farqli o'laroq, huquqiy-maktab maqomiga ega bo'lmagan va uning an'anaviy dasturiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan rahbarga bog'liq bo'lgan" [18.144].

Akademik erkinlik masalalari o'qitish va o'qish usullarida aks etadi. Madrasada faol o'qitish usullari qo'llanilgan: "Madrasada ta'lim evristik yoki hatto, sokratik usulda olib boriladi, bu esa muallimning mahoratiga bog'liq. O'qituvchi kitobdan bir necha satr o'qiydi, o'quvchilar esa o'qiganlari haqida o'z fikrlarini bildiradilar. Talabalar o'rtasida munozara kelib chiqadi. Fikrlar to'liq shakllangan, aniqlanganda, o'qituvchi qarama-qarshiliklarni yarastiradi, o'zining" [11.23] haqiqiy pozitsiyasini ko'pincha dogmatik tarzda ifodalaydi. Shunday qilib, mantiqiy fikrlash rivojlangan, material yaxshiroq o'zlashtirilgan va eslab qolingan. Zamonaviy tilga tarjima qiladigan bo'lsak, ma'ruza o'qishdan ko'ra bu turdagi seminarlar IX asrda, birinchi madrasalar paydo bo'lishi bilanoq tashkil etilgan. O'qituvchi talabalar bilan birgalikda o'rganilayotgan narsalarni qismlarga ajratib, ta'bir qilgan (tadris), mos ravishda o'qituvchi mudarris (tushuntiruvchi), ta'lim muassasasi esa madrasa deb ataladi. Ko'p narsa mudarrisning tajribasi, mahorati, qiziqishi va mehnatsevarligiga bog'liq edi. Mudarris shu asosda turli xil o'qitish usullarini qo'llay olardi. Y.D. Koblovning fikricha, dunyoviy fanlar asosiy bo'lmasdan, faqat yordamchi, ya'ni ikkilamchi qiymatga ega edi: "Arab tili grammatikasiga, poetikaga, ritorikaga, arifmetikaga, mantiqqa, falsafaga faqat muqaddas adabiyotni to'liq idrok etish vositasi sifatida qarash kerak" [11.23].

Umuman olganda, madrasaning dasturi ilohiyot va musulmon fiqhiga asoslangan edi. Umumta'lim fanlari oz bo'lib, ularni o'rganish islom aqidalarini yaxshiroq tushunish hamda o'zlashtirish uchun yordamchi xususiyatga ega edi. Ta'lim arab va qisman fors tilida olib borilgan. Ona tili esa o'rganilmagan. Asosiy e'tibor Qur'on va asosan diniy mazmundagi kitoblarni yod olishga qaratilgan. Ta'kidlash joizki, madrasada ta'lim darajasiga ko'ra kurslarga bo'linish bo'lmaganligi sababli, o'quv kursi to'plamidan iborat qat'iy ketma-ketlikda o'rganiladigan kitoblar ilm olishning ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilgan.

Mahalliy musulmon jamoalarining shakllanishi va rivojlanishida Movarounnahrning Toshkent, Buxoro, Samarqand, Xiva kabi asosiy shaharlari alohida ahamiyat kasb etgan. Keyinchalik ular musulmon tafakkuri va islomiy ta'lim markazlariga aylangan. XV-XIX asrlarda bu shaharlarda "Mir Arab", "Sherdor", "Ulug'bek", "Tillakori", "Ko'kaldosh", "Baroqxon" kabi musulmon olamiga oliy ta'lim markazlari sifatida ma'lum bo'lgan madrasalar qurilgan. XIX asr oxiriga kelib Buxoro amirligida 336 ta, Xiva xonligida 132 ta, Turkiston o'lkasida 348 ta madrasa bo'lgan[2.96].

XX asrning 2-choragi boshlarida sovet hukumati tomonidan madrasalar diniy muassasalar qatorida davlatdan ajratilgan va “xurofot o‘choqlari” tamg‘asi bilan tugatib yuborilgan. O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston musulmonlari idorasi ixtiyorida qolgan bir nechta madrasa esa endilikda faqat ruhoniylar tayyorlaydigan o‘rta va oliy diniy o‘quv yurtlariga aylantirilgan.

№	Madrasalarning joylashgan hududlari	soni
1	Buxoro madrasalari	322 ta
2	Nasaf (Qarshi) madrasalari	46 ta
3.	Qo‘qon madrasalari	41 ta
4.	Toshkent madrasalari	21 ta
5.	Amaldagi mavjud faoliyat yuritayotgan madrasalar	10 ta
6.	Davlat muhofazasidagi madrasalar (Buxoro, Qarshi, Qo‘qon, Xorazm, Toshkent, Jizzax)	148 ta

1-jadval. Madrasalarning joylashgan hududlari va soni.

Bu davrda bir nechta turdagi diniy ta‘lim muassasalari (maktab, madrasa, qorixona, daloilxonalar) mavjud edi. Bugungi kunda O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufida 10 ta o‘rta maxsus islom ta‘lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Ular “Ko‘kaldosh” (Toshkent shahri), “Mir Arab” (Buxoro shahri), “Xoja Buxoriy” (Kitob shahri), “Sayyid Muhyiddin maxdum” (Andijon shahri), “Hidoya” (Namangan shahri), “Faxriddin ar-Roziy” (Urganch shahri), “Muhammad al-Beruniy” (Nukus shahri), “Imom Termiziy” o‘rta maxsus islom ta‘lim muassasalari (Termiz shahri), “Xadichai Kubro” (Toshkent shahri) hamda “Jo‘ybori Kalon” ayol-qizlar o‘rta maxsus islom ta‘lim muassasalari (Buxoro shahri)dir[16.].

Darhaqiqat, “ta‘limni islomlashtirish emas, balki islom ta‘limi insondagi ijodiy kognitiv salohiyatni ochib berishga, komil – “inson-al-komil”, barkamol shaxsni shakllantirishga qodir. Biz uni nima deb atashimizdan qat‘iy nazar, u o‘z qalbi va aql-zakovati orqali mavjudlik ma‘nosini e‘tirof etuvchi shaxsdir. Islom ta‘lim modelining qurilishi, avvalambor, ijodkorlik va ta‘limni rivojlantirish g‘oyasiga asoslanishi, insoniy bo‘lishi kerak” [13].

Xulosa. Madrasalardagi islom ta‘limi zamonaviy ko‘p madaniyatli jamiyatlarda ta‘lim jarayonining bir qismi bo‘lib, uning maqsadi integrasiyalashuv, ijtimoiylashuv va kasbiylashuvdir. Islom ta‘limi ta‘limning so‘nggi mazmunlarini rivojlantirish konsepsiyasi sifatida bilim olishning barcha, ya‘ni innovation, tizimli, modulli amaliyotlarini optimallashtirish uchun ochiqdir. Madrasalarda mudarris va talabalar uchun yaratilgan imkoniyatlar akademik erkinlikning asl mohiyati shakllanishining ilk ko‘rinishlar deb ta‘riflab mumkin. Jumladan, o‘quv dasturlarining

erkin tanlanishi, talabalarning bir madrasadan ikkinchi madrasa o'tishi talabalarning mobilligiga, o'qituvchilarning fanlarga ijodiy yondashuvi kabi misollarni keltirishimiz mumkin.

Shuningdek, madrasalar nafaqat ta'lim maskani, balki ilmiy ijodiy tadqiqot makoni sifatida ham e'tirof etiladi. Jumladan, Bag'doddagi "Baytul hikma", Xorazmdagi Ma'mun akademiyalari yirik tadqiqot markazi ya'ni akademiyalar sifatida dovrug' qozonib, Al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino kabi dunyoga mashhur allomalarning tadqiqotlari uchun barcha asbob-uskunalar, yunon, hind, xitoy olimlarining minglab asarlarini o'zida jamlagan kutubxonalar, tabobat markazlari, geografik va boshqa tadqiqotlar uchun moddiy va ma'naviy jihatdan ta'minlashga, qo'llab-quvvatlashga aynan xon madrasalarida alohida e'tibor qaratilgan. Samarqanddagi Ulug'bek madrasasida temuriylar davrida yangi soha, ya'ni astronomiya ilmi rivoji uchun qurilgan maxsus observatoriyada tadqiqot va dars mashg'ulotlarini olib borishgan. Vaqf mulklari va badavlat insonlar(mesinatlar)ning ehsonlari, mablag'lari orqali mudarris, talaba va xodimlar maosh olgan, rag'batlantirilgan. Demak, madrasalarda diniy va dunyoviy ilmlarni izlagan mudarris-olimlarning akademik erkinligi ta'minlangan.

Albatta, bugungi globallashuv davrida akademik erkinlik zamonaviy huquqiy me'yorlar, martabali tashkilotlar, jahon hamjamiyati tomonidan qo'llab quvvatlanmoqda. Iste'molchilik davrida eng so'nggi tajribalarni qo'llash, mahsulotlarni iste'mol qilish, unga mos hayot tarzida yashash mumkin. Ammo insonning ma'lum makon va zamondagi imkoniyatlari, tafakkur darajasi, talab va ehtiyojlari uni qabul qila olishi kerak. Shu sababdan, inson tafakkuriga yangi voqelikka xos bilim, malaka va ko'nikmalarni singdirish, o'rgatish, rivojlantirish orqali uning ro'yobga chiqarish mumkin. Shunda ham tarixiy xotira, mavjud madaniy- ma'naviy meros, milliy qadriyat va an'nlardan uzoqlashmaslik maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Bakr Muhammad Narshaxiy, Buxoro tarixi, T., 1991.
2. Агзамходжаев С. Современное состояние исламского образования в Узбекистане. Проблемы становления и развития мусульманского образования на постсоветском пространстве. – Нижний Новгород: ИД «Медина», 2009, с.96.
3. Алихўжаев М. Қўқон хонлиги маданият ҳаётида мактаб ва мадрасаларнинг тутган ўрни. Тарих фанлари илмий даражасини олиш учун дисс., - 2012. - Б.55.
4. Asrorova L. Q. Buxoro madrasalari tarixidan. Toshkent: Hilol-Nashr, 2017 — 224-bet.
5. Bobojonova F. Buxoro amirligida ta'lim tizimi (XIX asr oxiri — XX asrning boshlarida). Toshkent: Adib, 2014 — 128-bet.

6. Berkey, J. (1992). *The Transmission of Knowledge in Medieval Cairo*. Princeton University Press.
7. Gibb, H. A. R. *The University in the Arab-Moslem World*, in *The University Outside Europe: Essays on the Development of University* Bradby, Edward: Ayer Publishing, 1970 — В.281–298.
8. Jumanazar A. *Buxoro ta'lim tizimi tarixi*. Toshkent: Akademnashr, 2017 — 592-bet.
9. Йўлдошев Ж., Хасанов С. *Жадид тарбияшунослиги асослари*. - Тошкент: 1994. – Б. 5-6
10. Kerenskiy O. M., *Medrese Turkestanskogo kraya-SPb.*, 1892.
11. Коблов Я.Д. *Конфессиональные школы казанских татар*. – Казань: Тип. Императорского ун-та, 1916.
12. Мардонов Р. *Таълим фалсафасида инсон омили (унверситет таълими мисолида)*. Falsafa fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Самарқанд, 2025.
13. *Модели исламского образования в постсекулярном обществе: евразийские и европейские тренды*. Под общ. ред. А.Х. Бижанова. Монография. – Алматы: ИФПР КН МОН РК, 2017. – 23 с.
14. Shamsutdinov R. T., Rasulov B., *Turkiston maktab va madrasalari tarixi (XIX asr oxiri va XX asr boshlari)*, Andijon, 1995.
15. Турдиева, М. (2024). XVIII-XIX асрларнинг 70 –йилларида Кўқон хонлигида маориф ва таълим- тарбия масалалари. *International jurnal of scientific reserarchers*, 6(1), 728-730.
16. Хушбоқова М. Ўзбекистон мадрасаларининг тарихи ва бугуни ҳақида биласизми? Internet manbaa, URL: <https://oliymahad.uz/23501>
17. Xolnazarova L. S. XIX—XX asr boshlarida Buxoro amirligida madrasalar va ularning madaniy hayotda tutgan oʻrni. Oʻtmishga nazar. — 2021. — № 2
18. Фархшатов М.Н. *Народное образование в Башкирии в пореформенный период 60 - 90-е годы XIX в.* / М.Н. Фархшатов — Москва: Наука, 1994. — 144 с.
19. Buxoro madrasalari. Internet manbaa, URL:https://uz.wikipedia.org/wiki/Buxoro_madrasalari.